

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini
ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2025-yil 1-dekabr holatiga

Suv xo‘jaligi sohasida ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish – soha xodimlarining eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridir.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

2025-yilning noyabr oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini 25-noyabrga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan I–II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 7-oktabr kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, Vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 405 ta topshiriq nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 81 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan va 2 ta topshiriqning muddatini uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining tegishli Rayosat bayonlari bilan ijro muddatlarini uzaytirish ma’qullangan.

Administratsiya rahbarining 59 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 440 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 61 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan.

Joriy yilning noyabr oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan 17 ta Administratsiya rahbari topshiriqlari, 59 ta Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarining barchasi (100%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

68 ta Prezident topshiriqlarining 67 tasi bajarilgan hamda 1 tasi bajarilmagan. Bugungi kunda, ushbu topshiriqni nazoratdan olish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi rayosatiga taklif kiritilgan.

Shuningdek, 2025-yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 446 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan 279 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 167 tasida ham ijrochi.

Administratsiya rahbarining 31 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 20 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 11 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 68 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 40 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 28 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay‘at yig‘ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi